

Qurilish ishlari

RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **76,1** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **2,4 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **77,3 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi- **20,3 foiz**


Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 76,1 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,6 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 1,8 mlrd.so'mni yoki 81,2 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,8 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-fevral oylari

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Guliston tumanida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4,2 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 82,5 foizni, mos ravishda, Sirdaryo tumanida – 5,6 mlrd.so'm yoki 80,2 foizni, Xovos tumanida – 6,5 mlrd.so'm yoki 84,7 foizni tashkil etdi.






**2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

| | <i>Jami</i> | |
|-------------------------|-------------------|-------------------------------|
| | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, foizda</i> |
| Viloyat bo'yicha | 76,1 | 101,6 |
| Guliston sh | 31,6 | 103,3 |
| Shirin sh | 3,2 | 116,5 |
| Yangier sh | 6,5 | 112,4 |
| Boyovut | 4,9 | 108,7 |
| Guliston | 4,2 | 82,5 |
| Mirzaobod | 5,7 | 112,9 |
| Oqoltin | 1,8 | 127 |
| Sardoba | 2,0 | 114,8 |
| Sayxunobod | 4,1 | 122,5 |
| Sirdaryo | 5,6 | 80,2 |
| Xovos | 6,5 | 84,7 |

**2018 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari
umumiy hajmida hududlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**





Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 41,5 % tashkil etdi, Xovos tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,5 % ni, Yangier shahrida 8,5 % va Mirzaobod tumanida 7,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Oqoltin tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,4 % ni va Sardoba tumanida 2,8 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 70,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 92,4 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foiz punktiga pasaydi.

Joriy davrda Boyovut tumani bo'yicha jami qurilish ishlari xajmida nodavlat sektorining ulushi 74,8 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,6 foizga pasaydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Mirzaobod 80,2 foizga (5,2 foiz punktga), Sirdaryo tumanida 96,0 foizga (1,2 foiz punktga) pasaydi, Yangier shahrida 100,0 foizni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova
(0371) 230-86-27